

# "O'zkimyosanoat" Ajda "Avtomobilsiz kun" aksiyasi o'tkazildi

// 25.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-avtomobilsiz-kun-aksiyasi-o-tkazildi>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 25 martdagi "Atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan "Toza havo" umumilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 46-sonli farmoniga muvofiq, **2026 yil 1 maydan boshlab har oyning 10 va 25-sanalarida "Avtomobilsiz kun" hamda "Avtomobilsiz hafta" aksiyalari o'tkazib kelinmoqda.**



Mazkur tashabbus doirasida bugun "O'zkiyosanoat" AJ tizimida ham ekologik madaniyatni yuksaltirish, atmosfera havosiga chiqariladigan zararli tashlamalarni kamaytirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan "Avtomobilsiz kun" aksiyasi tashkil etildi.



**Aksiya doirasida jamiyat rahbariyati va xodimlari xizmat avtotransport vositalaridan foydalanishni cheklab, ish joyiga jamoat transporti, velosiped va piyoda kelib, tashabbusda faol ishtirok etdilar.**



"O'zkimyosanoat" AJ bunday ekologik aksiyalar orqali atrof-muhit muhofazasi, havo sifati yaxshilanishi va aholi salomatligini asrashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda davom etadi.





